

**SAMARQAND VILOYATINING CHAKANA VA ULGURJI  
SAVDO  
TOVAR AYLANMASI**



*Dastlabki ma'lumot  
2023-yil yanvar-dekabr*




## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

**Statistik ma'lumotlar** jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistika ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Jumladan, ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra viloyat bo'yicha chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar soni **12 573** tani tashkil etmoqda, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **42** ta, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **12 531** tani tashkil qildi.

Shuningdek, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YaTTlar va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlari, chakana savdo ko'rsatkichlarida aks etgan.

### Chakana savdo aylanmasining asosiy ko'rsatkichlari



Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi **30 216,6** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **108,0 %** ni tashkil etdi.

Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **5 281,6** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **97,8 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **24 934,9** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **110,4 %**), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **2 581,2** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **110,0 %**) tashkil etdi.



# CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI



**Chakana savdo aylanmasi** – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.


	Jami mlrd. so'm	2022-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, %	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, %	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2022-yil yanvar – dekabr oylariga nisbatan, %
Samarqand viloyati	<b>30 216,6</b>	<b>108,0</b>	<b>5 281,7</b>	<b>97,8</b>	<b>24 934,9</b>	<b>110,4</b>
Samarqand sh.	10 474,3	108,9	3 875,1	90,0	6 599,1	124,2
Kattaqo'rg'on sh. tumanlar:	1 788,0	104,7	1,4	83,6	1 786,5	104,7
Oqdaryo	736,2	108,0	20,6	3,1 m.	715,6	106,0
Bulung'ur	1 252,6	108,1	32,2	105,4	1 220,4	108,1
Jomboy	1 079,1	107,0	126,7	128,6	952,4	104,6
Ishtixon	1 060,2	108,4	6,6	93,7	1 053,6	108,5
Kattaqo'rg'on	1 736,3	107,1	57,7	5,9 m.	1 678,6	104,2
Qo'shrabot	515,7	106,0	5,2	91,7	510,5	106,1
Narpay	959,6	107,7	7,3	80,7	952,3	108,0
Payariq	1 120,3	106,1	7,5	88,4	1 112,9	106,3
Pastdarg'om	1 697,3	105,5	46,0	129,0	1 651,3	105,0
Paxtachi	603,4	107,4	6,7	85,4	596,8	107,7
Samarqand	2 535,8	110,9	1 017,6	126,6	1 518,2	102,4
Nurobod	510,6	105,3	5,1	96,5	505,4	105,3
Urgut	3 272,3	106,2	48,3	103,5	3 224,0	106,3
Toyloq	874,9	115,8	17,7	95,2	857,3	116,3

2023-yilning yanvar-dekabr oylarida 2022-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan Toyloq (**115,8** %), Samarqand (**110,9** %), Samarqand shahri (**108,9** %), Ishtixon (**108,4** %), Bulung'ur (**108,1** %), Oqdaryo (**108,0** %) va Narpay (**107,7** %) hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.



## YILLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI


Chakana savdo tovar aylanmasi dinamikasi,  
yanvar-dekabr, mlrd. so'm



So'nggi **6 yillikda** chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'ati 2021-yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2021-yilning mos davriga nisbatan **114,2 %** yoki **21 035,6** mlrd. so'mni tashkil qildi.


### Chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati oylar kesimida, foizda

2022-2023-yil yanvar-dekabr oylari



2023-yilning yanvar-dekabr oylarida o'sish sur'ati 108,0 % ni tashkil qildi.

## Hududlarning chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, foizda



- |                 |                     |             |
|-----------------|---------------------|-------------|
| ■ Samarqand sh. | ■ Kattaqo'rg'on sh. | ■ Oqdaryo   |
| ■ Bulung'ur     | ■ Jomboy            | ■ Ishtixon  |
| ■ Kattaqo'rg'on | ■ Qo'shrabot        | ■ Narpay    |
| ■ Payariq       | ■ Paxtachi          | ■ Samarqand |
| ■ Pastdarg'om   | ■ Nurobod           | ■ Urgut     |
| ■ Toyloq        |                     |             |


Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulush Samarqand shahrida **34,7 %** bilan **10 474,3** mlrd. so'mni, eng quyi ulush esa Nurobod tumanida **1,7 %** bilan **510,6** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Viloyatning chakana savdo tovar aylanmasida Toyloq (**115,8 %**), Samarqand (**110,9 %**), Samarqand shahri (**108,9 %**), Ishtixon (**108,4 %**), Bulung'ur (**108,1 %**), Oqdaryo (**108,0 %**) va Narpay (**107,7 %**) tumanlarida yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.


## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi, statistik hisob-kitoblarga ko'ra **24 934,9** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **10,4 %** ga ko'paydi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **82,5 %** ni tashkil etdi.

### Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar, foizda




### Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar, foizda



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi 2022-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **97,8 %** ni va **5 281,6** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **17,5 %** ulushiga to'g'ri keldi.

## CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, foizda



■ Yirik korxonalar

■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Kattaq'org'on shahri (**99,9 %**) va Ishtixon (**99,4 %**), Payariq (**99,3 %**), Narpay (**99,2 %**) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi **17,5 %** ni tashkil etib, eng katta ulush Samarqand shahri (**37,0 %**) va Samarqand (**40,1 %**), Jomboy (**11,7 %**), Kattaqo'rg'on (**3,3 %**) tumanlarida kuzatildi.



## AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

### Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, ming so'm	O'sish sur'ati, foizda
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>7 257,7</b>	<b>105,7</b>
Samarqand sh.	18 090,3	106,7
Kattaqo'rg'on sh.	18 980,6	103,0
tumanlar:		
Oqdaryo	4 300,1	105,4
Bulung'ur	6 272,6	105,7
Jomboy	5 764,2	104,4
Ishtixon	3 883,4	106,1
Kattaqo'rg'on	5 968,7	105,0
Qo'shrabot	3 670,4	103,9
Narpay	4 257,3	105,8
Payariq	4 147,9	103,6
Pastdarg'om	4 477,2	103,3
Paxtachi	3 993,7	105,9
Samarqand	9 388,5	108,5
Nurobod	3 171,2	103,2
Urgut	5 922,6	103,7
Toyloq	4 006,2	113,0

Viloyat bo'yicha 2023-yilning yanvar-dekabr holatiga ko'ra o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **7 257,7** ming so'mni (2022-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **105,7** % ni) tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Kattaqo'rg'on shahri (**18 980,6** ming so'm), Samarqand shahri (**18 090,3** ming so'm) va Samarqand (**9 388,5** ming so'm), Bulung'ur (**6 272,6** ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.




# UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI



Viloyat bo'yicha 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **2 581,2** mlrd. so'mni, 2022-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **110,0** % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12-bozor (oylik) va 12-bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarda savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **1 047,6** mlrd. so'mni (**140,8** %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **1 533,6** mlrd. so'mni (**95,7** %) tashkil etdi.

## Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'mda




## Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati, foizda



## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda uyushmagan savdo tovar aylanmasi ham hisoblanadi. Bu ko'rsatkich dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari hisobidan shakllanadi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.

### Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati, foizda



**Dehqon (oziq-ovqat) bozori** – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlari va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shaxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.











## UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON\* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

	Jami, mlrd. so'm	2022-yil yanvar- dekabr oylariga nisbatan, %	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2022-yil yanvar- dekabr oylariga nisbatan, %	Chorva bozorlari, mlrd. so'm	2022-yil yanvar- dekabr oylariga nisbatan, %
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>2 581,2</b>	<b>110,0</b>	<b>1 047,6</b>	<b>140,8</b>	<b>1 533,6</b>	<b>95,7</b>
Samarqand sh.	194,5	135,3	186,5	136,0	8,0	121,4
Kattaqo'rg'on sh.	292,7	71,2	119,4	148,4	173,3	52,4
tumanlar:						
Oqdaryo	170,9	120,3	13,4	80,9	157,5	125,5
Bulung'ur	213,8	111,1	56,5	95,9	157,3	117,8
Jomboy	231,9	119,9	155,5	168,1	76,4	75,7
Ishtixon	212,0	143,1	104,5	3,0 m.	107,5	94,6
Kattaqo'rg'on	162,7	93,1	55,0	100,8	107,7	89,6
Qo'shrabot	126,4	111,6	25,6	175,0	100,8	102,2
Narpay	43,7	119,3	29,2	97,4	14,5	2,2 m.
Payariq	161,6	86,5	69,1	142,6	92,4	66,8
Pastdarg'om	99,4	89,6	9,7	57,2	89,7	95,4
Paxtachi	107,4	112,4	41,0	113,7	66,4	111,6
Samarqand	91,1	154,7	8,3	152,8	82,9	154,9
Nurobod	94,9	98,5	31,0	91,7	63,9	102,2
Urgut	148,6	118,6	91,5	167,3	57,1	80,9
Toyloq	229,6	197,4	51,4	176,8	178,2	2,0 m.

\* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishini hisobga olingan.











2023-yilning yanvar-dekabr oylarida, viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra, savdo aylanmasi hajmi **1 047,6** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**475,5** mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari		Mrld. so'm
	<b>Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</b>	<b>475,5</b>
	<b>Non va non mahsulotlari</b>	<b>163,9</b>
	<b>Don mahsulotlari</b> (Mosh, loviya, guruch va boshqalar)	<b>108,9</b>
	<b>Tovuq go'shti</b>	<b>76,0</b>
	<b>Qurilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</b> (Yong'och, bodom, pista va boshqalar)	<b>55,6</b>
	<b>Sut va sut mahsulotlari</b> (Sir, brinza,...)	<b>30,4</b>
	<b>Tuxum</b>	<b>35,1</b>
	<b>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak</b>	<b>12,3</b>
	<b>Ziravorlar</b>	<b>34,1</b>
	<b>Tuzlamalar</b>	<b>30,5</b>
	<b>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari</b> (Manzarali va qishloq xo'jaligi)	<b>4,3</b>
	<b>Nooziq-ovqat tovarlari</b>	<b>21,0</b>



## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI, mlrd so‘m

2023-yilning yanvar-dekabr oylarida, viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida, parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi **1 533,6** mlrd. so‘mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi **1 237,9** mlrd. so‘m, qo‘y va echkilar **210,7** mlrd. so‘m, otlar **76,3** mlrd. so‘m hamda parrandalar **8,7** mlrd. so‘mni tashkil qildi.

Chorva mollari (parrandalar)		Mrld. so‘m
	2 yoshdan kata bo‘lgan qoramollar	711,0
	1 yoshdan 2 yoshgacha bo‘lgan yosh mollar	343,7
	1 yoshgacha bo‘lgan yosh mollar	183,2
	Qo‘ylar	172,5
	Otlar	76,3
	Echkilar	38,2
	Kurka, o‘rdak, g‘oz	2,7
	Tovuqlar	5,8
	Quyionlar	0,1
	Qushlar	0,1

## UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI



2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni **2 977** tani, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **6** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni esa **2 971** tani tashkil qildi.


2023-yilning yanvar-dekabr oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi **1 218,0** mlrd. so'mni (**116,2** % ni) tashkil etib, 2022-yilning mos davriga nisbatan **16,2** % ga ko'paydi. Bunda savdo aylanmasining **70,7** % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

	Jami mlrd. so'm	2022-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, %	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, %	Kichik biznes va mikrofirmalar, mlrd. so'm	2022-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, %
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>1 218,0</b>	<b>116,2</b>	<b>356,4</b>	<b>132,2</b>	<b>861,6</b>	<b>110,6</b>
Samarqand sh.	591,8	109,4	82,3	91,2	509,5	113,1
Kattaqo'rg'on sh.	26,1	108,5	-	-	26,1	108,5
tumanlar:						
Oqdaryo	4,8	105,6	-	-	4,8	105,6
Bulung'ur	27,3	113,8	12,8	124,6	14,5	105,7
Jomboy	18,5	104,1	-	-	18,5	104,1
Ishtixon	6,2	102,0	-	-	6,2	102,0
Kattaqo'rg'on	14,0	103,7	-	-	14,0	103,7
Qo'shrabot	10,3	108,9	-	-	10,3	108,9
Narpay	12,8	106,8	-	-	12,8	106,8
Payariq	13,6	106,7	-	-	13,6	106,7
Pastdarg'om	98,1	103,9	19,4	82,7	78,7	110,9
Paxtachi	12,2	99,4	-	-	12,2	99,4
Samarqand	60,7	107,8	-	-	60,7	107,8
Nurobod	11,5	109,8	-	-	11,5	109,8
Urgut	30,9	104,4	-	-	30,9	104,4
Toyloq	279,2	154,9	241,9	166,3	37,3	107,2

## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

2023-yilning yanvar-dekabr oylarida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*IFUT-2 45-bo'lim 45.2 va 45.40.3 kodlaridan tashqari – motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish*) **2 530,0** mlrd. so'mni tashkil etib, o'tkan yilning mos davriga nisbatan **126,2 %** ni tashkil qildi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi **426,7** mlrd. so'm (o'sish sur'ati **110,0 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi **2 103,3** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **130,1 %**) tashkil qildi.

### Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi o'sish sur'ati, foizda



## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi



### Hududlar kesimida ma'lumot


	Hajm, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>2 530,0</b>	<b>100</b>
Samarqand sh.	1 835,3	72,5
Kattaqo'rg'on sh. tumanlar:	13,8	0,5
Oqdaryo	12,7	0,5
Bulung'ur	7,0	0,3
Jomboy	1,8	0,1
Ishtixon	10,5	0,4
Kattaqo'rg'on	19,2	0,8
Qo'shrabot	0,4	0,02
Narpay	9,3	0,4
Payariq	2,7	0,1
Pastdarg'om	0,5	0,02
Paxtachi	5,2	0,2
Samarqand	67,3	2,7
Nurobod	33,7	1,3
Urgut	1,8	0,1
Toyloq	508,8	20,1

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Samarqand shahri (**1 835,3** mlrd. so'm), Toyloq (**508,8** mlrd. so'm) va Samarqand (**67,3** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.




**Ulgurji savdo tovar aylanmasi** – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning qiymati, ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar.

## Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **17 107,1** mlrd. so‘mni tashkil etib, 2022-yilning mos davriga nisbatan **19,6 %** ga o‘ydi.



Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda **10 621,7** mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2022-yilning mos davriga nisbatan **96,6 %** ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi **62,1 %** ni tashkil qildi.


# ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK KORXONALAR



Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar Samarqand shahrida (2,2 m.), Toyloq (2,1 m.), Samarqand (141,0 %), Pastdarg'om (120,5 %), Nurobod (108,7 %) va Bulung'ur (103,4 %) tumanlarida kuzatildi.

2024-yil 1-yanvar holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni **3 021** tani shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **31** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **2 990** tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so'm	2022-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, %	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, %	Kichik biznes va mikrofirmalar, mlrd. so'm	2022-yil yanvar – dekabr oylariga nisbatan, %
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>17 107,1</b>	<b>119,6</b>	<b>6 485,4</b>	<b>196,1</b>	<b>10 621,7</b>	<b>96,6</b>
Samarqand sh.	11 142,8	124,1	5 180,8	2,2 m.	5 962,0	90,0
Kattaqo'rg'on sh.	432,2	106,1	1,4	21,4	430,8	107,4
tumanlar:						
Oqdaryo	97,7	86,0	-	-	97,7	86,0
Bulung'ur	424,0	99,6	327,7	103,4	96,3	88,6
Jomboy	236,3	94,6	41,9	100,6	194,4	93,3
Ishtixon	137,6	108,4	-	-	137,6	108,4
Kattaqo'rg'on	298,0	107,5	-	-	298,0	107,9
Qo'shrabot	48,6	103,3	0,2	74,5	48,4	103,4
Narpay	196,6	101,4	0,5	62,6	196,1	101,6
Payariq	102,1	110,3	-	-	102,1	110,3
Pastdarg'om	639,2	105,9	163,7	120,5	475,5	101,6
Paxtachi	35,6	104,6	0,3	30,9	35,3	106,5
Samarqand	1 282,9	113,8	338,6	141,0	944,3	106,5
Nurobod	115,3	101,8	0,2	108,7	115,1	101,7
Urgut	818,0	111,8	-	-	818,0	111,8
Toyloq	1 100,2	140,1	430,1	2,1 m.	670,1	116,3



**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo'limi  
Tel. 66-235-65-80**